

Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Turkiya va Vengriya yoshlarining Iqlim o'zgarishi masalasi yuzasidan bayonoti

Xalqaro Yoshlar Ekologik Oromgohi, Toshkent 2024

Biz, Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Turkiya va Vengriya yoshlari, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yoshlarning ishtiroki zarurligini ta'kidlaymiz. Bizning fikrimizcha, transchegaraviy yechimlarni ilgari surish va yoshlarning mintaqaviy hamkorligi mintaqamizda iqlim o'zgarishiga qarshi yanada samarali chora-tadbirlar ko'rilishiga olib keladi. Biz barcha darajalarda - milliy, mintaqaviy va global miqyosdagi iqlim jarayonlarida yoshlarning ishtiroki muhimligini alohida qayd etamiz.

Samarali mintaqaviy hamkorlik uchun platformalar taqdim etilishini va mintaqada yoshlar tashabbuslarini amalga oshirish uchun mablag' ajratilishini qat'iy so'raymiz.

Biz, Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Turkiya va Vengriya yoshlari, mamlakatlarimiz hukumatlarini quyidagilarga chaqiramiz:

Bolalarning sog'lom atrof-muhitga bo'lgan ajralmas huquqini ro'yobga chiqarish borasida:

- Bolalarni, ayniqsa qishloq joylarda va marginallashtirilgan hamjamiyatlarda yashovchi bolalar iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi oqibatlariga nisbatan alohida zaif ekanligini tan olish, ularning salomatligi va farovonligiga ustuvor ahamiyat berish hamda iqlim o'zgarishi bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ularning huquqlarini inobatga olish.
- Oziq-ovqat, sanitariya, sog'liqni saqlash, toza suv va havo bilan ta'minlash orqali hamjamiyatlarimiz barqarorligini oshiradigan, ayniqsa zaif hududlarda bolalarga yo'naltirilgan moslashuv strategiyalariga sarmoya kiritish.
- Iqlim va ekologik hujjatlar hamda siyosatlarining bolalarbop talqinlarini kiritish orqali bolalarning o'z huquqlari va imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirish.
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan yaxlit strategiyani amalga oshirish orqali uy xo'jaliklarida elektr ta'minoti, isitish va ovqat tayyorlashga e'tibor qaratgan holda ekologik toza energiya manbalariga o'tishga ko'maklashish.
- Ekologiya, iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish (ofatlar xavfini kamaytirish) sohalarida bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy sherikliklarni yo'lga qo'yish.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarda bolalar va yoshlarning muhim ishtirokini kengaytirish bo'yicha:

- Milliy yoshlar parlamentlari hamda hukumat organlari, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari huzurida yoshlar maslahat guruhlarini tashkil etish orqali yoshlarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish. Bu tuzilmalar inklyuziv xilma-xillik va kamsitmaslik tamoyillari asosida faoliyat yuritishi lozim.
- Moliyalashtirishni jalb qilish, mavjud manbalarni boshqarish va yoshlarning iqlim o'zgarishi bo'yicha mintaqaviy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun "Markaziy Osiyo + Ozarbayjon, Vengriya va Turkiya uchun Yoshlar iqlim fondini"ni tashkil etish.
- Mintaqada qo'shma tashabbuslar, hamkorlik va transchegaraviy yechimlarni rivojlantirish maqsadida Markaziy Osiyo + Ozarbayjon, Vengriya va Turkiya Yoshlar iqlim tarmog'ini yaratish.
- Iqlim bo'yicha global qaror qabul qilish platformalarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Vengriya va Turkiya yoshlarining xalqaro miqyosda vakilligini ta'minlash.

Uzluksiz "yashil" ta'lim va ekologik madaniyatni shakllantirish orqali bolalar va yoshlar salohiyatini mustahkamlash bo'yicha:

- Bolalarni o'z huquqlarini anglashga o'rgatish va ekologik muammolar haqida xabardorligini oshirish maqsadida milliy ommaviy axborot vositalari orqali kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan maxsus ta'lim va ko'ngilochar kontent (televideniye dasturlari, hujjatli filmlar, multfilmlar, qo'shiqlar, kitoblar, o'yinlar va boshqalar) yaratish.
- Ta'lim sohasidagi milliy siyosatga muvofiq maktab dasturiga iqlim ta'limini kiritish yoki iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan yangi fanni qo'shish orqali yoshlar o'rtasida iqlim ta'limini rivojlantirishga ko'maklashish.
- Sinfdan tashqari ishlarga iqlim muammolarini ko'rib chiqishni kiritish va tegishli tadbirlarni tashkil etish (masalan, munozaralar, BMT IO'HD Tomonlar konferensiyasini modellashtirish, badiiy tanlovlar, iqlim o'zgarishi ta'sir ko'rsatgan hududlarga ekskursiyalar, yoshlar ekologik klublari, olimpiadalar, atrof-muhit muammolarini hal qilish bo'yicha volontyorlar faoliyati).
- Maktab ma'muriyati tomonidan seminarlar yoki ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish orqali ota-onalarning ekologik va iqlim faolligining xavfsizligi va ahamiyati haqida xabardorligini oshirish, shuningdek, yoshlarning iqlim targ'iboti bo'yicha ota-onalardagi noto'g'ri tasavvurlarni bartaraf etish.

Maktabgacha va maktab ta'limi darajasidagi ta'lim siyosatining Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha:

- Maktabgacha va maktab ta'limi uchun BRMga mos, aniq, qiziqarli, bolalarning ishtirokiga asoslangan va ularning yoshiga mos keladigan o'quv dasturini ishlab chiqish.
- Mahalliy madaniy, iqtisodiy va diniy an'analarni hisobga olgan holda kontekstli ta'limni ta'minlash hamda bolalarning ekotizimdagi o'z rolini tushunishlarini kafolatlash.
- Iqlimga moslashish va tabiiy resurslarni boshqarish bo'yicha eng yaxshi mahalliy yechimlardan foydalangan holda bolalar va yoshlarga "yashil" ko'nikmalarni o'rgatish orqali yuqori darajadagi ta'limni singdirish va ularning bilimlarini amaliyotga tatbiq etishlarini ta'minlash.
- Iqtidorli talabalarni mahalliy hokimiyat organlariga yanada ko'proq jalb qilish va rag'batlantirish.
- Bo'lajak pedagoglar va o'qituvchilarni tayyorlashda iqlim o'zgarishi, BRM bo'yicha ta'lim, shuningdek, tarmoqlararo yondashuvni joriy etish.
- BRM mavzusini sertifikat olish imkoniyati bo'lgan muntazam o'quv kurslari materiallariga kiritish orqali o'qituvchilarning salohiyatini qulay formatda oshirish.
- Iqlim va BRM uchun kurashuvchi faollarni jalb qilgan holda o'zaro ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish.
- BRMga erishishga qaratilgan tashabbuslarni, ayniqsa zaif va marginallashtirilgan guruhlariga mansub bolalar va yoshlar manfaatlarini hisobga olgan holda moliyalashtirish.

Ushbu bayonot Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari, Ozarbayjon, Vengriya va Turkiyadan kelgan Xalqaro yoshlar ekologik oromgohining quyidagi yosh ishtirokchilari tomonidan tuzildi:

- Saida Mammadova (Ozarbayjon),
- Kamila Magyar (Vengriya),
- Madina Abdikarimova (Qozog'iston),
- Oksana Omorkulova (Qirg'iziston),
- Komronbek Avezov (Tojikiston),
- Kadir Gurbuz (Turkiya),
- Saparguli Maxmutov (Turkmaniston),
- Laziza Abdullayeva (O'zbekiston),
- Nazokat Kalnazarova (O'zbekiston),
- Beksulton Bozorboyev (O'zbekiston),
- Hilolaxon Qayumova (O'zbekiston),
- Shodiyaxon G'ulomova (O'zbekiston).